

XITOIY TILIDA TABU VA EVFEMIZMLAR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352233>

ERKINOV Ne'mat

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Nasirova S.A.

This article is about taboo and euphemisms in chinese. We researched what kind of words are taboo or euphemism.

Insoniyat yaralibdiki, uning taraqqiy etishining turli bosqichlarida, ayniqsa, kishilik jamiyatining ibtidoiy bosqichlarida ba'zi bir narsalar, harakatlar man etilgan. Ana shunday man qilish hodisasi tabu deb ataladi. “Tabu insoniyatning yozilmagan eng qadimiy qonuni sifatida ta’qiqlar vositasida paydo bo’lgan. Bu termini ilk bor ingliz kapitani J. Kook 1777- yilda qo’llagan. Polinezya tilidagi ma’nosi asli “tapu”, ta: (ishoratlamoq, belgilamoq) va pu: (diqqatni tortuvchi, insonni chalg’ituvchi) deganidir. U shaxsiy va diniy odatlar jihatdan biror narsani man etish, jumladan, ma’lum hayvonni ov qilish yoki o’simlikni sindirishni man etish bilan bog’liqdir.”¹

“Tabuni buzish o’z o’zidan jazoni keltirib chiqaradi. Har xil ilohiy kuchlar, jin va ruhlarga ishonish, tabu buzilgan holatlarda ular tomonidan jazoni taqozo etadi. Boshqa holatlarda, jazo jamiyat tomonidan ham berilishi mumkin. Shunday qilib ilk jazo shakllari tabu bilan bo’g’liq bo’lgan. Tabuni buzgan inson o’zi ham tabuga aylanadi.”²

“Tabu diniy e’tiqod, irim, qo’rqish va shu kabilar ta’sirida so’zning ishlatilishini cheklash yoki man etish; ishlatilishida shunday cheklangan, man etilgan so’z. Masalan, chayon so’zi o’rnida eshak, oti yo’q so’zlarining ishlatilishi.”³

Mazkur ilmiy maqola kesimida zamonaviy xitoy tilida mavjud ayrim tabu va evfemizmlarning semantik, stilistik xususiyatlarining tahlilini amalga oshirish maqsad etib belgilandi.

“Xitoy madaniyatidan qadimgi davrdan katta hajmdagi tabular saqlanib qolgan. Zhou sulolasining urf-odatlar kitobida yozilishicha, boshqa mamlakat yoki podsholikka tashrif buyurish oldidan, ko’ngilsizliklarning oldini olish maqsadida shu mamlakatning urf-odatlari va tabulari haqida tanishib chiqilgan.”⁴

Ko’p sonli tabular e’tiqod va din bilan o’zaro aloqadordir. Qachonlardir suv ilohiy sanalgan paytda, pichoqni suv va quduqlar oldida charxlash man etilgan edi. Insonlar bu kabi harakatlarning buyuk suv ruhini jahlini chiqarishi mumkin deb o’ylashgan. G’azablangan Suv bir qancha kulfatlarga sabab bo’lishi mumkinligiga ishonishgan.

Uzoq o’tmishdagi insonlar jin-ajinlar va ruhlarga qattiq ishonishgan. Agarda qo’shnilardan kimningdir uyida taziya bo’lib qolsa, uning uyi oldida yashovchi insonlar o’sha kuni guruchdan taom tayyorlamaslikka harakat qilishgan. Sababi, ular yoyilgan guruchlarni o’ziga yomon kuchlarni chaqirib oladi degan farazga ishonishganidir.

Tilda tabular turlicha bo’ladi. Ularning ko’pchiligi diniy va ruhiy so’zlar bilan bog’liqdir. Masalan, qadimda majusiy (butparast)lar ruhlarni barcha narsaning asosi deb hisoblashgan.

¹ <http://wikipediya.com>

² Фрейд З. Табу и тотем. Москва. М 1960.– С.36-38.

³ Хojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. Toshkent. “O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, 2002. – b.101.

⁴ Чжан Чань. Эвфемизация в русском и китайском языках 2013. Автореферат на соискание научной степени. В., -26 стр.

Qadimgilar tabiatning barcha ne'matlariga sig'inishgan, jumladan, quyosh, oy, yulduz daraxt, o'simlik, uy-joy, mulk. Daraxtlarni kesish ularni yoqish ham gunoh sanalgan bo'lib, bunday yomon ishlar insonlarga albatta zahmat yetkazadi deb o'ylashgan.

Xitoyliklarda har oyning va har yilning oxirgi kunida quyosh tutilishi ham tabu sanalgan. Azaldan oy taqvimining oxirgi kuni eng baxtsiz kun hisoblangan. Agarda shu kunda qandaydir tadbir o'tkazilsa, ichib ko'ngilxushlik qilinsa, ularning nazdida bu urush bo'lishini bildirgan. Bunday holat halokatlarga sabab bo'ladi deb hisoblashgan. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, muqaddas qadamjolarining va mansabdor amaldorlarning oldida hurmatsizlik bo'lmasligi uchun har xil so'zlarni ishlatishmagan. Xalq orasida g'oyat hurmatga sazovor bo'lgan insonlar Buyuk Faylasuf Konfutsiy va Xitoy Imperatorlari nomini hurmat bilan tilga olishgan.

“Efemizm yunoncha so'zdan olingan bo'lib, “euphemismos” – yaxshi “phemi” – gapiraman. Narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol botmaydigan so'zni qo'llash. Masalan, ikkiqat, bo'g'oz so'zlari o'rnida homilador, og'ir oyoqli so'zlarini so'zlarini qo'llash.”⁵

Tilda muayyan nutq vaziyati talabi bilan vujudga kelgan evfemizm ham mavjudki, ularning ma'nosi ko'pincha matn orqali oydinlashadi. O'zbek tilidagi misolga qaraymiz: “Ra'noni egasiga topshirmagunimizcha, — dedi Nigoroyim, — quyilmaydiganga o'xshaydi.” (A. Qodiriy) jumlasida nutq odobi nuqtai nazaridan “erga bermoq” iborasi o'rnida “egasiga topshirmoq” shaklidagi evfemizm qo'llangan.

O'lim bilan bog'liq mavzuda albatta biz juda ehtiyotkorlik bilan so'z yuritamiz. Sababiki, bu kabi holatlar insonning eng og'riqli nuqtasi hisoblanadi. Shuning uchun biz bu so'zni ishlatganda to'g'ridan-to'g'ri “o'ldi” deyish biroz noqulaylik keltirib chiqaradi. Masalan, o'zbek tilida “o'ldi” so'zi o'rniga “dunyoni tark etdi”, “hayotdan ko'z yumdi”, “bandalikni bajo keltirdi”, “rixlat qildi” kabi evfemizmlarni qo'llashimiz mumkin. Xitoy tilida ham 死 sǐ (o'lim) so'zi o'rniga mos keladigan evfemizm mavjud bo'lib, “谢世” xiè shì (yaxshi dunyodan ketdi), 作古 zuò gǔ (boshqa dunyoga ko'chib ketdi) so'z birikmalari ishlatiladi. Qadim xitoy odamlari so'zlashuvda jozibador gapirishni juda sevishganligi bois ular 归天 guī tiān (osmonga qaytmoq) evfemizmi, 驾鹤西游 jià hè xī yóu (turnaga o'tirib, g'arbga sayohat qildi) kabi iboralardan ham foydalanishgan. Bu kabi evfemizm iboralari insonlarga qo'rquv hissini yengillashtirishga yordam beradi.

Ko'pgina so'zlar xitoy tilida to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan, evfemizmlardan iborat. 出嫁 chū jià (turmushga chiqmoq) o'rniga 出门 chū mén (uydan chiqmoq), 结婚 jié hūn (turmush qurmoq) o'rniga 终身大事 zhōng shēn dà shì (hayot davomidagi buyuk ish) so'z birikmalari ishlatiladi. Bu kabi evfemizmlar, albatta, xitoy xalqining mentaliteti va psixologiyasidan kelib chiqqan holda sipolik, sirlilik, ichki ishonuvchanlikni anglatadi. Xitoy tili leksikasida bir qator so'zlar madaniyatli, nazokatli bo'lib, yana qolgan bir qismi oddiy so'z va iboralardan iboratdir.

Bundan tashqari xitoyliklarda yana boshqa evfemizmlar ham mavjuddir. Ular 醉 zuì “piyonistalik”, “aroqxo'rlik” ka bog'liq so'zlar o'rnida “shirakayf”, “harorat ostida”, “” va “ilohiy kuchlar” ga aloqador so'zlarga “hudo ” o'rnida “U”; “iblis”, “shayton” o'rnida “diyonatsiz”, “razil” evfemizmlarini ishlatishadi. Ichkilikbozlik insonlar sir saqlashga harakat qiladigan gunohlardan biri sanaladi. Evfemizmlarning stilistik xususiyatlari haqida gap ketganda, albatta ularning qaysi uslubdagi matnlarda qo'llanilishiga ham ahamiyat berish kerak. Shuni aytish lozimki, evfemizmlar asosan badiiy uslubda uchraydi, publistik, ilmiy-ommabop uslubda ham uchrash holati kam emas. Rasmiy uslubda tabu va evfemizmlarning qo'llanilishi man etiladi. Quyidagi badiiy uslubdagi matnlarda uchraydigan ayrim misollarning tahlilini amalga oshiramiz:

⁵ Xojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent. “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, 2002. – B.131.

我都两个月了。(wǒ dōu liǎnggè yuè) Mazkur jumla soʻzma-soʻz tarjima qilinganda “Men ikki oylik boʻldim” degan tarjimani keltirib chiqaradi. Ikki oylik chaqaloq gapirish imkoniyatiga ega boʻlmaganligi uchun, stilistik jihatdan bu tarjima notoʻgʻri boʻlib chiqadi. 两个月了 soʻz birikmasi aslida “homilaning ikki oylik” boʻlganini anglatadi. Maʼlumkin, ayolning farzand koʻrishi eng oily baxt sanaladi va shu baxtga “koʻz tegishini” oldini olish maqsadida soʻzlashuvda “Xomiladorlik” soʻzi tabu kategoriyasiga oʻtib ketadi. Masalan, oʻzbek tilida ham “Ikki oylik boʻp qoldik”, “Katta boʻlyabmiz”, “boshi qorongʻu” kabi evfemizmlar ishlatiladi. 两个月了 soʻz birikmasining tabu kategoriyasidagi soʻz birikmasi ekanligini aniqlamay turib, tarjima qilish notoʻgʻridir.

早餐吃的韭菜包子有，肚子有点不舒服，我去一号解决一下问题。(zǎocān chīde jiūcài bāozi yǒu, dùzi yóudiǎn bùshūfu, wǒ qù yíhào jiě jué yí xià wèntí.) Yuqorida berilgan gapning soʻzma-soʻz tarjimasiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, “Qornimda muammo paydo boʻldi. Buning sababi, nonushtada koʻkpiyozli yeganimdandir. Shu sababli, bu muammoni hal qilish maqsadida birinchi raqamli xonaga boraman.”, degan tarjimani beradi. Bu jumlada keltirilgan “birinchi raqam” soʻz birikmasi biroz gʻalislikni keltirib chiqarmoqda. Toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilinganda biz bu jumlaning tushunmasligimiz mumkin. Demak, 一号evfemizmining tub maʼnosiga qaraydigan boʻlsak, aslida u “hojatxona” soʻzi oʻrnida ishlatilgan. “Hojatxona” soʻzining ishlatilishi gapda, soʻzlashuvda biroz noqulaylik keltirib chiqarganligi tufayli, biz bu soʻzni tabu kategoriyasiga kirita olamiz. Masalan, oʻzbek tilda soʻzlashuvda “hojatxona” soʻzi oʻrnida “oxirgi xona”, “oq uy” soʻz birikmalarining ishlatilishiga ham guvoh boʻlishimiz mumkin.

因为那件事情，他进去了。(yīnwèi nà jiàn shìqíng, tājìn qùle.) Bu jumlada 那件事情 “ana u ish” aslida qaysi ish haqida ekanligi qorongʻu, lekin shu ishning, voqea-hodisaning salbiy ekanligini anglashiiz mumkin. Bu jumlaning stilistik xususiyati matn kesimida aniqlanadi, alohida tarjima gʻalilikka olib keladi.

你这样打扮起来就象做小姐似的。(nǐ zhèyàng dǎ bànqǐlái jiùxiàng zuò xiǎojiě shìde.) Zamonaviy xitoy tilida 小姐 soʻzi xulqi buzuvchi qizlarga nisbatan qoʻllanilishi urf boʻlganligi sababli, stilistik jihatdan tarjimaa yondashganda aynan shu maʼnoni ifoda etish lozim, soʻzma-soʻz tarjimada bunday natijaga erishib boʻlmaydi. 小姐 soʻzining metoforik maʼnosini anglagan holda, evfemizm sifatida qoʻllanilishini inobatga olgan holda toʻgʻri tarjimaga erishish mumkin. Bu esa tarjimondan nafaqat til sohasidagi leksik boylikni talab etadi, balki birinchi navbatda lingvomadaniy sohada bilim va koʻnikmaga ega boʻlishini talab etadi. Bu sohadagi bilimlarni mustahkamlash va boyitishda aynan evfemizmlardan xabardorlik talab etiladi.

Inson qaysi millatga tegishli boʻlmasin, tabiatiga koʻra hamisha oʻz kamchilik va nuqsonlarini oshkor etishdan oʻzini tortadi. Bunday vaziyatlarda koʻproq evfemizmlarga murojat etiladi. Masalan, 今天我手头有点紧，这样吧，今天你来结账，下次我来请你。(jīntiān wǒ shǒutóu yǒu diǎnjǐn, zhèyàngba, jīntiān nǐ lái jiézhàng, xiàcì wǒ lái qǐng nǐ.) Ushbu gapda 手头有点紧 turgʻun birikmasi insonning moliyaviy ahvoli tang ekanligini koʻrsatish uchun qoʻllaniladi. Bu birikmaning evfemizm ekanligidan bexabar tarjimon, tarjimada tushunmovchilikka yoʻl qoʻyishi mumkin. Soʻzma-soʻz tarjima esa biroz nooʻxshash chiqishi mumkin. Gapning stilistik jihatini aniq ifodalashda soʻz birikmaning evfemizm oʻrnida qoʻllanilganligini inobatga olgan holda amalga oshirilgan tarjima stilistik toʻgʻri tarjimaga aylanadi. Jumladan, yuqoridagi misolni “Bugun qoʻlim biroz tortilgan (pulim kamroq), kel, bunday qilamiz, buguncha sen pul toʻlab turgin, keyingi safar mehmondorchilik mendan” deb tarjima qilinishi toʻgʻri boʻladi. Oʻzbek tilida ham moliyaviy jihatdan muammolarni eshitganimizda “roʻzgʻori tortilgan”, “qoʻlida puli yoʻq” “puldand qiqilgan”, “puldand qiynalgan” soʻz birikmalari qulogʻimizga chalinadi. Xitoy tilidagi “手头有点紧” soʻz birikmasi gapda yuqoridagi maʼnolarni anglatish maqsadida evfemizm sifatida qabul qilinadi.

Xulosa o'rnida quyidagilarni keltirish mumkin:

Tabu va evfemizmlarning nutqda ko'p ishlatilishi tarjimon uchun noqulayliklar va qiyichiliklar yaratadi, ularni oldini olish maqsadida tarjimondan lingvomadaniy sohada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi;

Evfemizmlarning stilistik xususiyatlari bevosita matndan kelib chiqqan holda belgilanadi. Evfemizmlarni alohida mustaqil birikma sifatida tarjima qilish g'alizliklarga sabab bo'ladi. Evfema ma'no va shakl jihatdan nomutanosib (asimmetrik) hodisa, majoziy ma'no ifodalaganligidan, uni tilning biron sathida o'rganib bo'lmaydi;

Evfemik nutq asosan badiiy, publisistik, so'zlashuv nutqining tarkibiy qismi bo'lib, masalaning o'rganilishi nutqning vazifaviy turlarini xususiy planda yoritishga yo'l ochadi;

Evfema va tabu tushunchalari uzviydir. Evfema dastlab diniy, keyinchalik dunyoviy fikrlash, masalan, axloq-odob normalari, muomala odobi talabi asosida shakllangan. Evfema qo'llash uzoq tarixga ega bo'lsa-da, eng kam o'rganilgan. Uning qo'llanish doirasi, sababi, o'rganish ob'ekti tor tushunilgan, unga aytilishi man etilgan predmetlar nomini yashiruvchi, til egalarini har xil xavflardan, baxtsizliklardan saqlovchi “*xaloskor*” vosita deb qaralgan;

Tabu kategoriyasiga asosan irim-siringa oid, tana a'zolari, xulq-atvorga bog'liq, ijtimoiy holat, kasbga, urf-odatlariga aloqador tushunchalarni kiritishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI (REFERENCES)

1. A.Xojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent. “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, 2002. – 164 bet.
2. N.E.Kochkarova. turk tilida tabuva evfemizmlarning qo'llanish hususiyatlari 2014. Magistr akademik darajasini olishi uchun yozilgan dissertatsiya. T., - 89 bet.
3. Чжан Чань. Эвфемизация в русском и китайском языках 2013. Автореферат на соискание научной степени. В., -26 стр.
4. <http://www.google.com>.
5. <http://wikipediya.com>
6. <http://ziyo.uz>
7. <http://referat.Ru>
8. СА Хашимова [О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ \(НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА\)](#). - SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 2022.
9. Хашимова. [О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ](#). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
10. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
11. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с (p. 361)*.
12. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
13. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
14. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.

15. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
16. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
17. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
18. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
19. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
20. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
21. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
22. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
23. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
24. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019